



“MEN DINIY EKSTREMIZM VA TERRORIZM TAHDIDINI QANDAY TUSHUNAMAN?” , “O`ZBEKISTONLIK EKANIMDAN BAXTLIMAN”

Sodiqova Mohlaroyim

FarDU talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada diniy ekstremizm va terrorizmning bugungi kundagi yoshlar hayotiga ta'siri va uni oldini olish borasida yoshlar o'rtasidagi chora tadbirlar, O'zbekiston yoshlariga ochib berilayotgan imkoniyatlar va ularning amaldagi o'rni yoshlarning bosh vaqtini to'g'ri taqsimlash va mamlakatimiz rivojiga hissa qo'shuvchi bilimga chanqoq yoshlarni tarbiyalash borasida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *diniy ekstremizm, terrorizm, loqaydlik, fanatizm, diniy qarashlar.*

Azaldan ma'lumki insoniyatning eng zaif yoki eng kuchli tomoni bu uning e'tiqodi, diniy qarashlari, diniy bilimlaridir. Insonlar diniy fikrlashlari, o'z e'tiqodlarini ruhan va jismonan komillikka yetaklashiga ishonib kelishgan va bu aslini olib qaraganda haqiqatdir, ammo bunday komillikka erishishda bir qancha to'siqlar va chalg'ituvchi yo'llar vujudga keladi. Biz bu bilan nima demoqchimiz? , inson mustaqil fikriga va o'z dunyoqarashlarini hayotga to'g'ri tatbiq eta olar ekan u har qanday muammoni yechimini topa oladi. Bugungi kundagi yurtdoshlarimiz, ko'pincha yoshlarimizning o'rtasidagi diniy va ilmiy bilimlarning yetishmasligi, loqaydlik va e'tiborsizlik ularning turli noto'g'ri yo'llarga kirib ketishiga sabab bo'lmoqda. Bir necha yillardan beri tinch xalqlarning osoyishtaligini buzib kelayotgan turli xil qo'poruvchi harakatlar, terroristik hujumlar aynan diniy bilimlarimizning sayozligi, ilmiy salohiyatsizligimiz va vaqtini to'g'ri tashkilmaslik ortidan kelib chiqmoqda. Demak avval terrorizm va ekstremizm aslida nima va yuqoridagi holatlarni oldini olish choralari borasida suhbatlashamiz.

Terrorizm so'zi (fransuzcha “qo'rqitish”) o'z fikrini zo'ravonlik yo'li bilan boshqalarga o'tkazish. Bu yo'lda suiqasd, qo'poruvchilik yo'llaridan foydalaniladi. Demak biz so'zning ma'nosidan ham tushunishimiz mumkinki bunday jarayonga olib kirish uchun avvaliga tushkunlikka tushgan va o'z kuchiga ishonmagan va mustaqil fikriga ega bo'lmagan va turli moddiy va ma'naviy kuchsiz yoshlarni jalb etish bilan boshlanadi, avvaliga ularga ruhan yaqinlik va turli xil moddiy yordamlar berib boriladi, asta-sekin bir qancha diniy bilimlar berib boriladi. Ahamiyat beradigan bo'lsak berilayotgan diniy bilimlar to'g'ri ma'lumotlar, ammo uni targ'ib qilish borasidagi noto'g'ri fikrlar bilan yoshlarning fikrini boshqa tomonga qaratiladi, bunday harakatlarga kirib qolishning eng ko'p hollari moddiy yetishmovchilik tufayli yuzaga keladi. Oiladagi notinchlik turli kichik-kichik janjallar ro'zg'orning tuganmas muammolari ortidan yengil pul topish yo'lini izlayotgan insonlar bu qarmoqqa osongina ilinadi.





Terroristik harakat boshchilari kuchli motivatorlar bo'ldi, ular o'z o'ljasini nozik tomoni bilan unga zarba beradi. Bunday qarmoqqa aqlli, oilaviy holati namunali va tirishqoq yoshlarning ham tushib qolishi achinarli holdir.

Diniy ekstremizm – muayyan diniy konfessiya va tashkilotlardagi ashadiy mutaassib, fanatik unsurlarning faoliyati mafkurasi. Fanatizm o'z aqidasi shak-shubhasiz to'g'riligiga ishonib, boshqa firqa va mazxablarni butunlay rad etgan holda ularni tan olmaslik, balki ularni diniy asoslarini buzishda ayblab, ularga qarshi urush ochishga chaqiriladigan omillardir.[1]

Diniy oqimlarning vujudga kelishi xalqning o'zaro tarqoqligi va ularning o'zaro kichik guruhlariga bo'linib harakatlanishi orqali vujudga keladi. Shu borada birinchi prezidentimizning mustqillika qadam qo'yish davridagi qiyinchiliklarida o'z oldiga qo'ygan savollari ayni bugungi kuni ham o'z ichiga oladi.

“Eng murakkab savollardan biri shuki, bizdagi barqarorlik va xavfsizlik yo'lida tahdid bo'lib turgan muammolarni anglab yetyapimizmi?

Xavfsizligimizni tahdid bo'lib turgan muammolarga nimani qarshi qo'ya olamiz? Jamiyatimizning to'xtovsiz va barqaror rivojlanishiga, biz istiqomat qilayotgan mintaqada jug'rofiy-siyosiy muvozanat saqlanishiga nimalar kafolat bo'la oladi” –deya xalqqa murojaat qilgandi yurtboshimiz.[2] Bundan kelib chiqib aytish mumkinki har bir yosh yurt tinchligiga hissa qo'shishni istar ekan, ushbu savollarni o'z-o'ziga berishi kerak.

Bugungi kunda osoyishtalik nima ekanligini ko'ra olmayotgan Afg'oniston, Eron, Suriya davlatlariga nazar tashlasak. Bomalar ovozida och-nahor va ruhan ezilgan bolalarning ahvoli yurtning parokandaligi, xalqning bu harakatlardan ezilishi, iqtisodiy tanglik, bolalarning savodsizligi va ularning huquqlarini poymol bo'lishi, ayollarning xo'rlanishi o'z farzandlarining jasadi oldida sassiz holda qolishi ayni paytda bo'lib kelayotgan holatdir.

Men O'zbekiston mamlakatida dunyoga kelganimdan baxtiyorman. Bugun rivojlanib borayotgan mamlakatimizni qay sohasiga qaramaylik rivojlanishlar, keng imkoniyatlar eshigi ochilmoqda. Yoshlarning har biri xalq rivoji uchun bosgan qadami yurtboshimiz nazaridan chetda qolmayapti. Diniy, dunyoviy barcha bilimlarning erkinligi bugungi yoshlarni har tomonlama o'sishga undaydi. Kundan-kunga obod bo'lib borayotgan shahar ko'chalari, maktablarning yevro'pa standartlari bo'yicha jihozlanishi, yetuk kadrlarni salohiyatini doimiy o'sib borishi va yoshlarga keng miqiyosda bilim berishi, prezident maktablarining ochilishi, iqtidoqli yoshlarni munosib rag'batlantirish, oliy ta'limdagi nomdor stipendiyalar, prezident stipendiyalari tashkillanishi biz yoshlarni o'zimizga ishonchni, yurtimizga va yurtboshimizga bo'lgan faxrni oshiradi desak mubolag'a bo'lmaydi. Shunday imkoniyatlar davrida qanday baxtiyor yashamaslik mumkin.

Yoshlarning vaqtini to'g'ri taqsimlash, yaratilayotgan imkoniyatlarga ularni jalb qilish, ularning bilim salohiyatini oshirish va doimiy rag'batlantirish ularni yetuk kadr qilib yetishtirish ularni turli chalg'ituvchi omillardan asrashning eng to'g'ri yo'lidir.





Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich aytganlaridek "Yoshlarning bo`sh vaqti, dushmanning ish vaqtidir" .

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.A.Mo`minov , X. Yo`ldoshxo`jaev, D. Rahimjonov, M.Komilov, A.Abdusattorov, A.Oripov "Dinshunoslik", Toshkent –"Mehnat"- 2004

2.I.A.Karimov "Ozbekiston XXI asr bo`sag`asida, xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari

